

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA HARAKAT VA HOLAT SEMALI LUG‘AVIY BIRLIKLAR SEMANTIKASIGA DOIR TADQIQOTLAR

Qahharova Sabohat Abdug'afurovna

O‘zMU tayanch doktoranti.

E-mail: sabohatqahhorova922@gmail.com

Annotatsiya: Til tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, harakat va holat semali lug‘aviy birliklar ikki yo‘nalishda: leksemaning leksik-semantik guruhlari hamda so‘zshaklning grammatik kategoriyalari jihatidan o‘rganilganligini guvohi bo‘lamiz. Xususan, XX asrning 60-yillari o‘rtalaridan boshlab olimlar semantikaning tarkibiy qismi — leksik semantikaga alohida e‘tibor qaratdilar. Natijada ular lug‘aviy birliklar tilning barcha boshqa birliklari bilan bog‘lanib, o‘zining butun leksik-semantik tizimi doirasidagina o‘z mohiyatini namoyon etishini alohida ta’kidladilar.

So‘nggi yillarda semantikasi o‘rganish tilshunoslikning global muammolaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Ayniqsa, turli tillarda fe‘llar leksik-semantik tasnifining murakkab va rang-barangligi til o‘rganuvchilarning muayyan bir tilni o‘zlashtirishida, so‘zlarning leksik ma‘nolari va ularning boshqa so‘zlar bilan semantik mutanosibligini belgilashida bir qator qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Shu sabab ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligidagi harakat va holat fe‘llari tasnifi, leksik-semantik guruhlar (LSG)i jahon tilshunosligi nuqtayi nazardan tahlil qilinib, ularning farqli jihatlari haqida fikr-mulohazalar yuritildi.

Kalit so‘zlar: semantika, lug‘aviy birliklar, harakat va holat fe‘llari, dinamik va statik fe‘llar, leksik-semantik guruh (LSG), punktual (punctual) dinamik fe‘llar, davomiy (durative) dinamik fe‘llar.

Аннотация: Если мы посмотрим на историю языка, то можно увидеть, что лексические единицы с действием и состоянием изучаются в двух направлениях: с точки зрения лексико-семантических групп лексемы и

грамматических категорий словоформы. В частности, с середины 60-х годов 20 века ученые особое внимание уделяют составной части семантики - лексической семантике. В результате они подчеркивали, что лексические единицы связаны со всеми другими единицами языка и проявляют свою сущность только в рамках всей лексико-семантической системы.

В последние годы изучение семантики признано одной из глобальных проблем языкознания. В частности, сложная и разнообразная лексико-семантическая классификация глаголов в разных языках создает ряд трудностей для изучающих язык в овладении тем или иным языком, определении лексических значений слов и их сочетаемости с другими словами. По этой причине в данной статье была проанализирована классификация глаголов действия и состояния в узбекской лингвистике, лексико-семантических групп (ЛСГ) с точки зрения мировой лингвистики, а также сделаны комментарии об их различиях.

Ключевые слова: семантика, лексические единицы, глаголы действия и состояния, динамические и статические глаголы, лексико-семантическая группа (ЛСГ), пунктуальные (punctual) динамические глаголы, длительные (durative) динамические глаголы.

Abstract: If we look at the history of the language, we can see that lexical units with action and state were studied in two directions: in terms of lexical-semantic groups of the lexeme and grammatical categories of the word form. In particular, from the mid-60s of the 20th century, scientists paid special attention to the constituent part of semantics - lexical semantics. As a result, they emphasized that lexical units are connected with all other units of the language and show their essence only within the framework of the entire lexical-semantic system.

In recent years, the study of semantics has been recognized as one of the global problems of linguistics. In particular, the complex and diverse lexical-

semantic classification of verbs in different languages creates a number of difficulties for language learners in mastering a particular language, determining the lexical meanings of words and their compatibility with other words. For this reason, in this article, the classification of verbs of action and state in Uzbek linguistics, lexical-semantic groups (LSG) were analyzed from the point of view of world linguistics, and comments were made about their differences.

Keywords: semantics, lexical units, action and state verbs, dynamic and static verbs, lexical-semantic group (LSG), punctual (punctual) dynamic verbs, continuous (durative) dynamic verb.

Kirish. O‘zbek tilshunosligida fe’lning leksik-semantik guruh (LSG)larga ajratish borasida tadqiqotchi olimlar o‘rtasida turlicha talqinlar mavjud. Shu o‘rinda shunday savol tug‘iladi: bugungi kunda fe’l so‘z turkumini harakat va holat semali fe’llarga ajratib tadqiq etish nafaqat o‘zbek tilshunosligi uchun, qolaversa, til o‘rganuvchilar uchun qanchalik ahamiyatli? Yoki harakat va holat fe’llariga, umuman, fe’l so‘z turkumiga berilgan ta’riflar mukammal ishlanganmi? Ming afsuslar bo‘lsinki, bu borada mavjud darslik, qo‘llanmalarda fikrlar turlicha:

- fe’l harakat yoki holatni ifodalovchi so‘z turkumidir [Абдурахмонов¹⁹⁵⁷; 378];
- harakat so‘zining grammatikada bunchalik keng ma’noda qo‘llanilganligidan holat ma’nosini ham shuning ichiga kiritib, “fe’l - harakat bildiradigan so‘z turkumi” deyish ham mumkin [Абдурахмонов¹⁹⁵⁷; 377];
- harakat ma’nosini bildiruvchi so‘zlar fe’l deyiladi [Шоабдурахмонов ва б.,1980; 325];
- fe’llar shaxs va predmetlar harakatini ifodalash bilan birga, turlicha holatni, belgining o‘zgarishini ham harakat tarzida anglatadi: *daraxt ko‘kardi, o‘rik gulladi, ukam uxladi* kabi [Турсунов ва б.,1992; 315].

Bundan tashqari mavjud adabiyotlarda va izohli lugʻatlarda harakat yoki holat fe'llarining aniq ta'rifi berilmagan. Lugʻatlardagi harakat-holat semali leksemalarga berilgan ta'riflar esa zamonaviy leksikografik talablariga javob bermaydi: lugʻaviy birliklar ma'nosi to'liq ochib berilmagan. Ma'lum bir leksemalarni izohini berishda "aylanma ta'riflar" dan unumli foydalanish kuzatiladi. Qolaversa, o'zbek tilidagi lugʻaviy birliklarning semantik lugʻati haligacha yaratilmagan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Til tarixiga nazar tashlasak, hozirgi kungacha o'zbek tilida harakat-holat semali lugʻaviy birliklar turli sathlarda: morfologik, leksikologik, so'ngra semasiologik (semantik) nuqtayi nazardan o'rganilganligini hamda bunga ko'plab tadqiqotchilarda qiziqiqish uyg'onganligini guvohi bo'lamiz. Dastavval harakat-holat semali lugʻaviy birliklar asosan turkum jihatdan tadqiq etilgan. Xususan, XX asr boshlarida tilshunos olim Abdurauf Fitrat ham o'zbek ("turkcha" nomi bilan keltiradi) tilidagi fe'l so'z turkumiga turkum sifatida yondashadi. U fe'lning barcha grammatik kategoriyalarining har biriga alohida to'xtaladi, olimning bu boradagi ayrim fikrlari hali o'z ilmiy qiymatini yo'qotmagan, ayniqsa, fe'lning shaxs-son, nisbat va bo'lishli-bo'lishsizlik shakllari haqidagi mulohazalari alohida e'tiborga molik [Kypбoнoвa, 1997; 28-30].

O'zbek tilida fe'l so'z turkumini fundamental tadqiq etish XX asrning 50-yillaridan boshlandi. Jumladan, 1954-yilda zabardast tilshunos olim Ayub G'ulomovning "Fe'l" kitobi nashrdan chiqdi. Ayub G'ulomov va Sodiq Ferdauslardan keyin fe'l mavzusi bo'yicha bir qator tadqiqotlar, monografiyalar, o'ttizga yaqin ilmiy maqolalar muallifi hamda sinchkov "fe'lshunos olim" sifatida tanilgan Azim Hojiyev 1960-yilda "Hozirgi zamon o'zbek tilida fe'lning hozirgi zamon shakllari" mavzusida nomzodlik, 1968-yilda esa "O'zbek tilida to'liqsiz fe'l" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi hamda ularni jamlab 1973-yilda "Fe'l" sarlavhasi ostida monografiyasi nashrdan chiqdi [Madaliyev, 2018; 6-son]. Unda fe'llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ikki

asosiy guruhga bo'linadi: 1) mustaqil fe'llar, 2) yordamchi fe'llar. Mustaqil fe'llar harakatning obyektga bo'lgan munosabatiga qarab ikki guruhga bo'linadi: a) obyektli fe'llar, b) obyeksiz fe'llar [Хожиёв, 1973; 4]. Muallif obyektli fe'llar deganda o'timli fe'llarni, obyeksiz fe'llar deganda esa o'timsiz fe'llarni nazarda tutadi. Bundan tashqari monografiyada fe'l yasalishi, fe'lga xos grammatik kategoriyalar o'zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan bayon etiladi. Natijada bu davrda fe'l so'z turkumiga oid tadqiqotlar morfologik sathda atroflicha o'rganiladi.

XX asrning 70-80-yillarida yaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar o'zbek ma'noshunosligidagi yangi davrni boshlab berdi [Рахматуллаев ва б., 1974; 1-сон]. Ular orasida R. Yunusov, S. G'iyosov, A. A. Salkalamanidze, B. Jo'raev, R. Safarova, M. Narzieva singari tadqiqotchilarning izlanishlari alohida ajralib turadi. Xususan, X. G. Ne'matov bilan A. A. Salkalamanidze maqolasida fe'llarning semantik-sintaktik guruhlarini ajratishda faqat ularning obyekt munosabatlarini hisobga olish zarurligi aytiladi. Unda turkiy tillarda fe'lning o'timli va o'timsizligi morfologik emas, aynan leksik kategoriyadir, deyiladi. O'timsiz fe'llarni medial (oralik, vosita) va medial bo'lmagan fe'llarga ajratadi. O'timsiz medial (vosita) fe'llarda boshqariladigan predmet bo'lmaydi, balki predmet holati tabiiy yo'l bilan o'zgaradi. Masalan: *ko'ylak quridi, kiyim quritilgan, barglar sarg'aydi* (S₁-V₁) kabi [Нигматов ва б., 1979; 1-сон].

Darhaqiqat, fe'lning o'timli yoki o'timsizligi bevosita nisbat kategoriyasi bilan bog'liqligi sabab bu nisbatlanish harakat ma'nosini holat semali fe'lga aylantiradi (*bo'yamoq-bo'yalmoq*) yoki aksi holat semasini harakat semali fe'lga o'zgartiradi (*oqarmoq-oqartirmoq*). Aynan bu fikr fe'ldagi o'timli va o'timsizlikning fe'l arxisemasi (harakat yoki holat semasi)ga o'z ta'sirini o'tkazishi uni morfologik kategoriya emas, balki leksik-semantik kategoriya deyishimizga asos bo'la oladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Fe'llarni harakat va holat semali fe'llarga ajratish, ularga berilgan ta'rif va tavsiflar qanchalik ahamiyatli

yoki ahamiyatli emasligini aniqlash uchun mavjud adabiyotlarga, tilshunos olimlar fikriga qiyosiy nazar tashlaydigan bo'lsak, Ayub G'ulomov fe'lga harakat yoki holatni ifodalovchi so'z turkumi sifatida yondashib, undagi bu leksik xususiyat ikki to'daga: harakat fe'llari va holat fe'llariga ajratilishiga asos bo'lishini isbotlaydi [Гуломов А., 1945; 3]. Olim harakat fe'llariga dinamik xususiyat aniq sezilib turgan *yugurmoq, o'qimoq, yurmoq* kabi fe'llarni; *eshitmoq, eslamoq, qarimoq* kabi fizik hodisalarni holat fe'llari deb hisoblaydi.

Azim Hojiyev fe'l so'z turkumiga harakat ma'nosini bildiruvchi so'zlar deya ta'rif bergan holda uning zamirida *uxlamoq, yotmoq, turmoq* kabi fe'llar ifodalaydigan holatlarni; *qo'rqmoq, cho'chimoq, zavqlanmoq, qadrlanmoq* kabi fe'llar bildiradigan psixik o'zgarishlarni; *gullamoq*, kabi fe'llar bildiradigan biologik jarayonlarni va shu kabi sememalar mavjudligini ta'kidlaydi. Olim "grammatikada harakat tushunchasi juda kengligi" dan kelib chiqqan holda harakatni umumiy tarzda barcha fe'llarga xos deb hisoblaydi [Хожиёв 1973; 4]. Shu sabab u fe'llarni bir semantik guruhga birlashtirmaydi, ammo monografiyada o'zbek tilidagi ko'plab fe'llarning tahlili berilgan bo'lib, ularning yasalishi, grammatik shakllarning qabul qilishi, o'rni bilan semantikasi haqida izchil fikrlar bildirilgan.

Bu borada M. Sodiqova turkolog olimlar ishlarini kuzatar ekan, ularning tadqiqotlarida fe'lning leksik-mazmuniy to'dalarini ko'plab kichik mazmuniy guruhlarga bo'lib o'rganilganligini alohida qayd etadi. va bu haqda shunday deydi: "Avval fe'llarni ikki katta gruppaga: harakat va holat fe'llari gruppasiga ajratib, so'ng ularni o'z ichida yana mayda gruppalariga ajratgan holda tekshirish zarur" [Содиқова, 1975; 57]. Xuddi shu mazmunda S. H. Muxamedova ham holat fe'llaridan tashqari barcha fe'llarni harakat arxisemasiga ega semantik maydonni tarkib toptiradi, deb qaraydi. Ammo professor M. Mirtojiyev S. H. Muxamedova e'tiborda tutgan fe'llar ichida nutq fe'llari, sezgi fe'llari, mushohada fe'llari ham borki, ular alohida semantik maydon sifatida qaralмай iloji yo'q", deydi [Миртожиев, 2010; 53]. Boshqa bir o'rinda S. H. Muxamedova doktorlik

dissertatsiyasida X. G. Ne'matov bilan A. A. Salkalamanidzellar maqolasini va Q. Xoliqov tadqiqotini kuzatar ekan, maqolada *yashamoq, yotmoq, tutamoq, o'tirmoq, yonboslamoq* kabi holat fe'llarini harakat fe'llari sifatida talqin etilganligini; tadqiqotda esa muallif o'z fikrlaridan chekingan holda harakat semali fe'llar sirasiga *kasallanmoq, sog'aymoq, qarimoq, yosharmoq* kabi holat fe'llarini qo'shib yuborishini alohida qayd etadi [Мухамедова, 2007; 46]. S. H. Muxamedova monografiyasida esa fe'llar bosh ma'nosiga ko'ra avvalo harakat, so'ng holatni anglatishini, dissertatsiya tadqiqot obyekti sifatida dinamik-faol harakat semali fe'llar olinganligini ta'kidlaydi. Olima "dinamik harakat tushunchasi ostiga borliqdagi harakatlana oluvchi jismlarning muayyan o'zgarishga uchrashi, ya'ni o'z o'rnini va holatini o'zgartirishi, harakat sodir etishi natijasida o'z hayotiy ehtiyojlarini qondirishi nazarda tutiladi", deydi [Мухамедова, 2005; 6-7].

Ravshanxo'ja Rasulov 1989-yilda o'zining "O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning valentligi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida holat fe'llarining 9ta leksik-semantik guruhini qayd etar ekan, keltirilgan misollarning barchasida qisman bo'lsa-da, harakat semasi mavjudligini payqash mumkin: 1) davomli holat fe'llariga *turmoq, o'tirmoq*; 2) harakat natijasi bo'lgan holat fe'llariga: *yorishmoq, qoraymoq*; 3) ijro holati fe'llariga *saqlamoq, poylamoq*; 4) harakatning holati fe'llariga *kuchaymoq, pasaymoq*; 5) malaka holati fe'llariga *odatlanmoq, o'rganmoq*; 6) obrazli holat fe'llari quyidagilar: *alangalamoq, gavgavlamoq*; 7) biologik holat fe'llariga *keksaymoq, suvsamoq*; 8) fiziologik holat fe'llariga *uxlamoq, charchamoq*; 9) psixik holat fe'llariga *o'ng'aysizlanmoq, qo'rqmoq* kabi [Расулов, 2008; 7]. S. Muhammedova ta'biri bilan aytgan-da, bosh ma'nosiga ko'ra avvalo harakatni ifodalab kelgan, chunki ular muayyan harakat natijasida "o'z o'rnini va holatini o'zgartirgan" [Мухамедова, 2005; 6-7].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yuqorida keltirilgan barcha fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, fe'llarni ma'no jihatdan faqat ikkita yirik guruhga: harakat va holat fe'llariga bo'lib tadqiq etish, bizningcha, turkiy tillar,

xususan, o'zbek tili uchun ham uchalik to'g'ri emas. Bunga kuzatishlar natijasida quyidagi sabablarni asos sifatida keltirish mumkin:

Birinchidan, bu holatni, ya'ni fe'llarning ikkita yirik guruhga: harakat va holat fe'llariga ajratilishini turkolog olimlardan N. K. Dmitriyev, V. F. Veshilova, E. R. Tenishev, G. K. Kuliyeu, A. M. Memetov, hatto A. N. Chugunekova va V. S. Barys-Khoolarning ishlarida ham uchratmaymiz.

Ikkinchidan, fe'llarni semantik maydon nuqtayi nazardan ham ikkiga: harakat yoki holat arxisemali fe'llarga ajratib bo'lmaydi. Chunki ba'zi harakat fe'llari nisbat shaklini olishi natijasida holat semali fe'lni yoki holat fe'llari harakat semali fe'lni hosil qilishi mumkin. Oqibatda harakat yoki holat semasi muayyan semantik maydon uchun arxisema maqomidan chetlashadi. Bu borada tilshunos olim M. Mirtojyev nemis olimi M. Filipning quyidagi fikrlarini keltiradi: "...bu arxisema, genetik sema sifatidagi barcha birliklarga taalluqlidir" [Миртожиев, 2010; 53-54]. .

Amerikalik til faylasufi, professor Z. Vendler fe'llarni semantik jihatdan to'rt turga ajratadi:


1) faol harakat fe'llari (activity verbs or dynamic verbs): *yugurmoq, yurmoq, suzmoq, bormoq, kelmoq, qaytmoq, surmoq yoki tortmoq;*

2) turg'un yoki barqaror holat fe'llari (stative verbs): *ega bo'lmoq, xohlamoq, yoqtirmoq, sevmοq, nafratlanmoq, hukmronlik qilmoq, bilmoq, ishonmoq;*

3) muvaffaqiyatga erishish fe'llari (achievements verbs): *tan olmoq, anglamoq, aniqlamoq, yo'qotmoq, topmoq, cho'qqiga chiqmoq, poygada g'alaba qozonmoq, chegarani kesib o'tmoq, boshlamoq, to'xtatmoq va davom ettirmoq, tug'ilmoq, o'lmoq;*

4) muvaffaqiyatli yakunlangan fe'llar (accomplishments verbs): *chizmoq, yasamoq, qurmoq, yozmoq, o'qimoq, dars bermoq, darsga qatnashmoq, o'ynamoq, ulg'aymoq, tuzalmoq, tayyorgarlik ko'rmoq* va hokazo [Vendler, 1967; 97-121]. Bundan tashqari, Brinton Vendler tasnifiga asoslangan fe'llarning to'liqroq tasnifini

taklif qiladi. Brintonning fe'l turlari quyidagi chizmada aks etgan [Brinton, 1988; 54]:



Muallif chizmada fe'llarni dinamik va statik turlarga ajratib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini birma-bir sanab o'tadi: masalan, statik (stative) fe'llarni hissiy, aqliy va jismoniy holatlar kabi o'zgarmas vaziyatlarni ifodalashi bilan bir qatorda ularda holat turg'un, muqim ko'rinishda bo'lishi; dinamik (dynamic) fe'llarda esa harakat cheksiz davom etishi (*yurmoq*, *bahslashmoq*) yoki o'zgaruvchan (*o'smoq*, *rivojlanmoq*) shaklda ifodalanishi mumkinligi aytiladi. Shu o'rinda aytish kerakki, L. Brinton *kravotda o'tirmoq* (*sitting on the bed*), *rasmga tikilmoq* (*staring at the picture*) kabi fe'llarni dinamik fe'llar guruhiga kiritisa, aynan "o'tirmoq" fe'lini R. Rasulov davomli holat fe'llar tarkibida izohlaydi [Расулов, 2008; 8].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Demak, harakat va holat semalari nisbiy tushunchalar hisoblanib, ular fe'lning semantik jihatdan guruhlariga ajratib tadqiq etishda asosiy mezon bo'la olmaydi. Chunki fe'lning aksariyat qismida harakat semasi mujassam, harakat natijasida holat semasi vujudga keladi.. Bu kabi muammoni hal etishning yagona yo'li fe'llarni jahon tilshunosligi e'tirof etgan mezonga binoan tasniflashdir.

Umuman olganda, o'zbek tilshunosligida fe'l leksik-semantik guruhlarini tadqiq etilgan salohiyatli ilmiy ishlar mavjud va bu sohada ilmiy izlanishlar hali ham davom etmoqda. Tadqiqotchilar oldida nutqda eng keng tarqalgan o'zbek tilining leksik resurslarini o'rganish va shu tilda so'zlashuvchilar uchun muhim

tushunchalarni, shu jumladan, undagi harakat-holat semali lugʻaviy birliklarning semantik, tezaurus lugʻatlarini ishlab chiqish vazifasi koʻndalang turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ғ. А. Ҳозирги замон ўзбек тили (лексикология. фонетика. графика ва орфография. морфология.). Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти. Тошкент—1957. 391б 377-378 б2
2. Brinton, Laurel. *The Development of English Aspectual Systems*. Cambridge: Cambridge University Press. 1988.
3. Ҳожиёв А. Феъл. Т., «Фан», 1973. 192 б. 4-б
4. Madaliyev A. Oʻzbek tilshunosligining yorqin namoyandasi.// Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali. T: 2018. 6-son. 5-bet
5. Миртожиев, М.М. Ўзбек тили семасиологияси. - Т.: Mumtoz soʻz, 2010. - 288 б. 53- б.
6. Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги. Филол. фан. док. ...дисс. – Т., 2007. – 325 б. 46.
7. Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги.– Т: Фан нашриёти, 2005. – 122 б. 46-б.
8. Нигматов Х. Г., Цалкаламанидзе А. А.. Семантико-синтаксические группы глаголов и значение залоговых аффиксов в узбекском языке// Журнал. Советская тюркология. №3 Баку — 1979. С 48-57
9. Қурбонова М. М. Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунослиги. Тошкент — «Университет» 1997. 48б. 28-30-б
10. Қўчқортёев И. Суз маъноси ва унинг валентлиги. —Тошкент: Фан, 1977
11. Раҳматуллаев Ш., Юнусов Р. Семемаларнинг семалар состави ва семантик боғланиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974, — №1, 51- 53-бетлар;
12. Раҳматуллаев Ш. Лексик маънони компонентлаб таҳлил қилиш

- тажрибасидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978, №4, 54-60-бетлар
- 13.Расулов. Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. Монография 2-нашри. – Т: 2008. 142 б. 7-б.
- 14.Содиқова М. Феъл стилистикаси. Ўзбекистон ССР «Фан» нашриёти. – Т: 1975. 57-б
- 15.Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги узбек адабий тили: Олий укув юрт. филология фак. талабалари учун дарслик.— Т.: Узбекистон, 1992. —399 б. 315
- 16.Vendler, Zeno. 1967. “Verbs and Times”. Linguistics in Philosophy. Ithaca: Cornell University Press, p.97-121.
- 17.Ғуломов А. Феъл. Ҳозирги ўзбек тилидан материаллар. -Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1954. 3-б.
- 18.Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили «Ўқитувчи» нашриёти, 1980 446 б., 325-б.